

THE IMPORTANCE OF DEVELOPING NOSTALGIC TOURISM IN UZBEKISTAN

Asadova Aziza Olimjonovna

Researcher at the International University
of Tourism “Silk Road”

E-mail: aziza.asadova@mail.ru

Abstract: This article analyzes the origin of the concept of nostalgia, the stages of its formation as one of the target types of tourism, its interaction with other types of tourism and the definition of "nostalgic tourism", also are given information about the potential of nostalgic tourism and suggestions in Uzbekistan.

Keywords: Nostalgia, ethnotourism, economic, recreation, destination

Bugungi globallashuv davrida insonlarning o'z yashash manzillarini o'zgartirishi, bir joydan ikkinchi joyga ko'chishi, umr o'tgan sari yoshlikdagi xotiralar bularning barchasi odamlarda sog'inch hissini uyg'otadi. Sog'inch, qo'msash hislari insonlarda psixologik jarayonlar asosida hosil bo'ladi va bu hislarning kundun-kunga kuchayishi depressiya, asabiylashish, stressga olib keladi. Bunday vaziyatda eng samarali yo'l bu sayohat qilishdir.

Biror bir destinatsiya yoki obyektini sog'inish va qo'msash asosida borib ko'rish, sayohatni amalga oshirish, yangi maqsadli turizm turining shakllanishiga olib keladi. Bugungi kungacha mamlakatimizda bunday turizm turiga aniq ta'rif yoki nom berilmagan. Nostalgik (qo'msash) turizm etnik turizm tarkibida hisoblanib, unga alohida e'tibor qaratilmagan. Lekin tashrif buyuruvchi turistlarning maqsadlari o'rganilganda, qarindosh-urug'ini, tug'ilib o'sgan joylarni borib ko'rish dam olish maqsadida kelgan turistlar etnik turizm maqsadida emas, aynan “Nostalgik turizm” maqsadida kelganlari oydinlashadi. Bunda “nostalgiya” so'ziga alohida to'xtalib o'tish lozim.

Nostalgiya so'zi qadimgi yunoncha tildan olingan bo'lib, “nosteo” – “qaytib kelish”, “algos” – “dard, og'riq”¹ ma'nolarini anglatadi. Vatanni sog'inish, qo'msashdan kelib chiqadigan kasallik sifatida talqin qilingan.

Nostalgik kechinmalar Gomesning “Odisseyaya” dostonida birinchi marta keltirilgan bo'lib, bir biriga yaqin kishilarning sog'inchi shaklida tasvirlangan. Biroq atama sifatida 1688- yilda shveytsariyalik shifokor Yoxan Xofer tomonidan ishlatilgan bo'lib, o'z vatanidan uzoqda bo'lgan askar va o'z uyiga qaytib tuzalgan talaba voqeasida izohlab bergan². Nostalgiya uzoq yillar mobaynida kasallik sifatida talqin qilingan. Faqatgina XX asrning birinchi yarmiga kelib, filosiya, psixologiya va sotsiologiyada nostalgiyaga nisbatan qiziqish paydo bo'ladi va nostalgiya kasallik emas, his tuyg'u ma'nolarida qo'llaniladi.

Nostalgiya so'zi birinchi marta G'arb mamlakatlarida paydo bo'lgan. Uni to'g'ridan to'g'ri o'zbek tiliga tarjima qilganda “qo'msash”, “sog'inish” ma'nolari kelib chiqadi. “O'zbek tilining

¹ <https://psychology.academic.ru/5502/ностальгия>

² <https://books.google.ru/books?id=04pA60aYIkEC&pg=PA462&dq=словарь+медицинских+ностальгия&hl=ru&sa=X&ved=0ahUKEwi8keyw4L7kAhXCxIsKHSAS5DSIO6AEIRDAE#v=onepage&q=ностальгия&f=false>, [Психология. Иллюстрированный словарь](#). — ОЛМА Медиа Групп. — С. 238. — 508 с. — ISBN 9785938780934.

izohli lugati”³ hamda “O`zbekiston milliy ensiklopediyasi”⁴ da nostalgiya so`zidan qo`msash so`zini izohlashda foydalanilgan. “Qo`msash- o`z vatani, tug`ilgan yurti, yaqin kishisi (kishilari) yoki narsasidan umrod yoki vaqtincha ajralgan, uzoqlashgan kishilarda ro`y beradigan ruhiy holat. Qo`msash go`daklarda, yosh bolalarda ota-onasiga, o`rganib qolgan yaqin kishilariga nisbatan ichikish tarzida, katta yoshdagi kishilarda esa o`z vataniga, o`tgan hayotining ma`lum davr va voqealariga nisbatan ностальгия tarzida kuzatiladi”. Ammo “qo`msash” so`zi “nostalgiya” so`zining to`liq ma`nosini ochib bermaydi. Chunki bu so`z yillar davomida sayqallanib, turli voqea-hodisalarni, obyekt va his-tuyg`ularni tasvirlashda ishlatilmoqda: “xotirlash”, “sog`inch”, “qo`msash”, “bolalik”, “eslash”, “o`tmish”, “tarix”, “vaqt” va boshqalar. Demak, O`zbekistonda nostalgik turizmni rivojlantirish, uning alohida statistikasini yuritish, sog`inch ilinjida sayohatni amalga oshiruvchilarga alohida imtiyozlar berish, yangidan-yangi turistik xizmatlar majmuini yaratish, individual, buyurtmali turlarni ko`paytirish lozim.

Bugungi kungacha xorijda ko`plab olimlar nostalgik turizmi o`rganib, o`z ilmiy ishlarida unga o`z ta`riflarini berishga harakat qilgan.

N.V.Savina o`z ilmiy ishlarida qo`msash turizmiga quyidagicha ta`rif bergan: “Nostalgik turizmi bu kirish turizm turlaridan biri bo`lib, chet ellik sayyohlar o`zi tug`ilib o`sgan, yashagan, ta`lim olgan yoki ular uchun katta ahamiyatga ega bo`lgan joylarni borib ko`rish maqsadida sayohatni amalga oshirishidir”.

A.O.Kolsova esa o`zining ilmiy ishlarida nostalgik turizmni etnik turizm bilan bir deb hisoblab:- Nostalgik turizm yoki etnik turizm- bu kishilarning o`zi yoki ota-onasi tug`ilib o`sgan, qachonlardir yashagan joylar tarixiga qiziqish, qarindoshlari yoki aynan bir etnikka mansub aholi yashaydigan joylarni ko`rishni istashi (ularning yashash tarzi, urf-odatlarining o`ziga xosligi va boshqalar bilan tanishish) maqsadida jo`nab ketishi tushuniladi – deya ta`riflaydi. Uning fikriga ko`ra, aynan ushbu turizm turi mamlakat aholisining ko`p qismi boshqa shaharlarda yashaydigan davlatlar uchun katta ahamiyat kasb etadi. Nostalgik turizm ishtirokchilari- bu yoshligida aynan ma`lum hududda yashab, turli: harbiy, siyosiy, diniy, iqtisodiy sabablarga ko`ra ketishga majbur bo`lgan, asosan yoshi katta insonlar hisoblanadi. Eski do`stlari va qarindoshlarining qanday yashayotganligi, o`sha davrlardan beri shahar va qishloqlarning qanday o`zgarganligi qiziq tuyuladi.

L.I.Yegorenkov ham nostalgik turizm bu insonlarning tug`ilib o`sgan, yashagan, bolaligi o`tgan, kelib chiqishiga aloqador bo`lgan joylarni borib ko`rish deya ta`riflagan⁵.

Ayrim manbalarda nostalgik turizmni rekreatsion turizm tarkibida ham deb hisoblanadi. Ar-da.ru sayti ma`lumotlariga ko`ra, nostalgik turizm bu-rekreatsion turizm turlaridan biri bo`lib, turizmning yanada ekzotikaga boyligi ko`rsatadi.

Nostalgik tur davomida turistlar aholining ma`lum bir etnik guruhini, ularning hayotini, madaniy o`ziga xosligini va boshqa muhim jihatlarini o`rganadi. Bu aholining kelib chiqishi, ularning tarixini o`rganish bilan davom etadi. Nostalgik turizm turistlarga o`z yaqinlarini yoki uzoq davr mobaynida yo`qotib qo`yilgan qarindoshlarini boshqa mamlakatlardan qidirib topish imkoniyatini yaratadi⁶.

³ “O`zbek tilining izohli lug`ati: 80000dan ortiq so`z va so`z birikmasi. J.V.Shukrona-H/Tahrir xay`ati:T.Mirzayev (rahbar) va boshq.; O`zR FA Til va adabiyot in-ti. – T.: “O`zbekiston milliy ensiklopediyasi” Davlat ilmiy nashriyoti, 2008. 407-bet

⁴ O`zbekiston milliy ensiklopediyasi. 11-jild. Qizilqumit- Ho`rmuz. Tahrir xay`ati: A.Azizxo`jayev, B.Alimov, M.Aminov va b. T.: “O`zbekiston milliy ensiklopediyasi” Davlat ilmiy nashriyoti, 2005. 183-bet

⁵ Егоренков Л. И. Введение в технологию туризма. М.: Финансы и статистика. 2009. – 153с

⁶ <https://ar-da.ru/aktivnyj-otdyh>

O`zbekistonda odamlar yillar mobaynida turli sulolaviy nizolar, jadidchilik, qatag`on va urush yillarida o`z yashab turgan Vatanlarini tashlab boshqa yurtlarga ketishga majbur bo`lgan. Ularning avlodlari o`sha yerlarda bugungacha yashab kelishmoqda. Ko`plab odamlar o`zlarining ajdodlari yashab o`tgan, bolaligi o`tgan yurtlarni borib ko`rishni orzu qiladi. Nostalgik turizmni rivojlantirish aynan shunday insonlar uchun imtiyozlar yaratib berish, ularni mamlakatimizga maqsadli, xavfsiz kelib ketishlarini ta`minlash, turfirmalar tomonidan aynan shunday vaziyatlar uchun maxsus turlarni shakllantirish imkoniyatini beradi. Bundan tashqari urush yillarida mamlakatimizga 1 milliondan ortiq o`z boshpanasini yo`qotgan kishilar⁷ olib kelingan, ulardan 200 ming nafarini bolalar tashkil etgan bo`lsa, mamlakatimizdan urushga ketganlar soni 1,5 milliondan ortiqni tashkil etgan. Urush yillarida ko`plab hamyurtlarimiz boshqa mamlakatlarga ko`mlashish uchun jo`nab ketib qaytib kelmagan. Urushdan omon qolganlar esa o`sha yurtlarda qolib ketgan yoki bedarak yo`qolgan deb hisoblangan. Mustaqillikdan keyin mamlakatlararo hamkorlikning qayta yo`lga qo`yilishi, aynan yurtidan uzoqqa ketib qaytib kelolmay qolgan yurtdoshlarimiz uchun o`z ona vataniga qaytib kelish imkoniyatini berdi. Lekin shaharlarning tubdan o`zgarishi, joy nomlarining almashtirilishi bunday insonlar uchun ko`plab noqulayliklarni keltirib chiqaradi. Bunday vaziyatda nostalgik turizmni rivojlantirish kelib chiqishi mumkin bo`lgan muammolarni oldini olish, turfirmalarda yangi turmahsulotlarni yaratish, yangi maqsadli turizm turlarini shakllantirish, chekka joylarda ham infratuzilmani yaxshilash, qolaversa xalqlararo munosabatlarni kengaytiradi. Ma`lumot o`rnida aytish joizki, xorijda yashaydigan o`zbek diasporalar dunyoning barcha mamlakatlarida uchraydi. Ular yashaydigan hududdagi obyekt va destinatsiyalarga O`zbekiston shaharlari nomlari berilgan, masalan, Birlashgan Arab Amirliklarida “Bukhara street, 13”, AQSHning Pensilvaniya shtatidagi eng ko`p aholi soniga ega Filodelfiya shahrida “Samarkand restaurant” va boshqa yana ko`plab misollarni keltirish mumkin. Bundan insonlar uchun O`zbekistonda sharoit yaratib berishni o`zi ko`plab turistik oqimlar uchun yo`l ochib beradi.

Nostalgik turizm zamonaviy turizmning boshqa barcha turlari bilan chambarchas bog`liq bo`lib, uning o`ziga xosligi shundaki, nostalgik turizmning obyekti aniq bir narsa emas, balki mamlakatimizdagi har qanday obyekt, joy, ma`naviy-madaniy meros, shaxs, millat, urf-odat va qadimgi unutilgan meroslar bo`lishi mumkin. O`zbekistonning uzoq yilgi tarixga ega ekanligi inobatga olinsa, nostalgik turizmni rivojlantirish uchun barcha imkoniyatlar yetarli darajada. Faqat ulardan to`g`ri-maqsadli foydalanish uchun tashkiliy-iqtisodiy mexanizmini ishlab chiqish kerak, xolos. O`zbekistonda turizm iqtisodiyotning asosiy sektorlaridan biri. Joylarda strategik infratuzilmalarni rivojlantirish, turizm obyektlarini topib ularni davlat ro`yxatidan o`tkazish, ulardan samarali foydalanish chora-tadbirlari ishlab chiqilib, amaliyotga tadbiiq etilmoqda. Nostalgik turizmni rivojlantirish uchun ana shunday imkoniyatlardan keng foydalanib, shaharlar va qishloqlarda joylashgan turli millatga mansub aholining ma`lum destinatsiyalarining ro`yxatini shakllantirish, turfirmalar uchun maxsus nostalgik turlar bo`yicha turistik paketlarni shakllantirishga buyurtmalar berish, nostalgik turizm maqsadida tashrif buyuruvchilarga erkinroq xizmat ko`rsatish uchun internet sahifalarini yaratish, O`zbekistonda joylashgan qabristonlarning elektron ro`yxatini shakllantirish va ma`lumotlar ochiqligi ta`minlash, mehmonxonalarda imkoniyati cheklanganlar va yoshi katta turistlar uchun

⁷ O`zbekiston Respublikasi Prezidentining “Ikkinchi Jahon urushida fashizm ustidan qozonilgan g`alabaga O`zbekiston xalqining qo`shgan munosib hissasiga bag`ishlangan kitob albomni nashr etish chora-tadbirlari to`g`risida” Farmoyishi. Toshkent. “O`zbekiston” 2020.

barcha sharoitlarni yaratish, eng asosiysi aviachipta narxlariga imtiyozlar berishni yo'lga qo'yish lozim.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:

1. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining "Ikkinchi Jahon urushida fashizm ustidan qozonilgan g'alabaga O'zbekiston xalqining qo'shgan munosib hissasiga bag'ishlangan kitob albomni nashr etish chora-tadbirlari to'g'risida" Farmoyishi. Toshkent. "O'zbekiston" 2020.
2. Егоренков Л. И. Введение в технологию туризма. М.: Финансы и статистика. 2009. – 153с
3. "O'zbek tilining izohli lug'ati: 80000dan ortiq so'z va so'z birikmasi. J.V.Shukrona-N/Tahrir xay'ati:T.Mirzayev (rahbar) va boshq.; O'zR FA Til va adabiyot in-ti. – T.: "O'zbekiston milliy ensiklopediyasi" Davlat ilmiy nashriyoti, 2008. 407-bet
4. O'zbekiston milliy ensiklopediyasi. 11-jild. Qizilqumit- Ho'rmuz. Tahrir xay'ati: A.Azizxo'jayev, B.Alimov, M.Aminov va b. T.: "O'zbekiston milliy ensiklopediyasi" Davlat ilmiy nashriyoti, 2005. 183-bet

Internet sahifalar:

1. <https://ar-da.ru/aktivnyj-otdyh>
2. <https://books.google.ru/books?id=04pA60aYlkEC&pg=PA462&dq=словарь+медицинских+ностальгия&hl=ru&sa=X&ved=0ahUKEwi8keyw4L7kAhXCxIsKHSA5DSIQ6AEIRDAE#v=onepage&q=ностальгия&f=false>, Психология. Иллюстрированный словарь. — ОЛМА Медиа Групп. — С. 238. — 508 с. — ISBN 9785938780934.
3. <https://psychology.academic.ru/5502/ностальгия>